

O'LMAS UMARBEOV HIKOYALARI TAHLILI

E'zoza Usmonbekova FarDU talabasi

Kalit so'zlar: O'lmas Umarbekov, insoniy fazilatlar, Bahor bulutlari, Hotamtov, Isiriq, Haykal, Garov.

Annotatsiya

Ushbu tezisda O'lmas Umarbekovning hikoyalari asosida badiiy tahlil beriladi. Ulardagi badiiy topilma, sarlavha sharhlari va muammolarga ijodiy yechimlar ko'rsatiladi.

O'lmas Umarbekov turli adabiy janrlarda ijod qilgan hamda yaratilgan asarlari syujeti, asosan, insoniy fazilatlar hayotning asosini tashkil etishini isbotlab beradi, hamma-hammasida ma'naviy-axloqiy fazilatlar ardoqlanadi, ulug'lanadi. Birinchi galda adibning hikoya nomlash mahoratiga e'tibor qaratamiz:

„Bahor bulutlari” kinoqissasi 1966-yilda yozilgan. Bahor ob-havo nuqtayi nazaridan tez o'zgaruvchan fasldir. Uni yoshlikka qiyoslaydilar. Dam yomg'irli, dam quyoshli... Har birimiz musaffo osmonimizni bahor faslida qanchalik yorqin moviy rangda tovlanishini, bulutlar kutilmaganda shamol vositasida uchib kelib, ko'kka o'rlashini kuzatganmiz. Xuddi shunday Zulfiyaning yorqin va muhabbatga to'la hayotiga „qora bulut” chang soldi...

Asar syujeti aynan kinoqissa bo'lganligi uchun tez sur'atda o'sib borganligini ko'rishimiz mumkin. Bosh qahramon Zulfiya – maktab o'quvchisi va o'spirin yoshda bo'lganligi tufayli ko'p ruhiy bosqichlarni bosib o'tayotgan edi. Uning yuragini „muhabbat shabadasi” bir siypab o'tdi-yu, hayoti tubdan o'zgarib ketdi. „Axir yaxshi ko'rish, muhabbat qo'yishdan ham go'zal tuyg'u bormi?” deydiganlar ham topildi. Ammo Zulfiyani o'z joniga qasd qilishga majbur qilgan „og'zi polvonlar” har qadamda topildi. Suyaksiz til nimalarga qodir ekani, bironing or-nomusi, hayoti haqida so'z borganda odamlar ko'r-ko'rona shafqatsiz muhokamaga berilishlari kitobxonni larzga soladi. Asarda murakkab epizodlar mavjud emas. Ular o'ziga yuklatilgan qisqa vazifani bajarib, syujet liniyasini tark

etadi. Biroq bosh qahramonlardan kutilgan jiddiy burilishlar mavjud emas. Asosiy mazmun Zulfiyaning yechimga ega taqdiri bo'lmaganligi sababli yuqoridagi natijaga erishilmaydi.

„Hotamtoy” orqali adib go'yo bolalar uchun ertaknamo voqea hikoya qilgan bo'ladi. Lekin hikoya so'nggida biz insonlar orasida o'z qilgan yaxshiliklari evaziga hech narsa kutmaydigan Hotamtoylar bor ekanligiga amin bo'lamiz. Xolposhsha uchun hayotidan ham qadrlı bo'lgan palto va etikchalarni bezori bolalar olib qo'yishganda dunyo ko'ziga qorong'u ko'rinadi. O'gay onasi esa Xolposhshani bag'riga bosib, joniga oro kiradi. Hikoya yakunida sirli yaxshi inson unga yangi kiyimlar sovg'a qiladi. Yana shu narsani xulosa qilish mumkinki, boshimizga kulfat tushgan kunlarni ortiqcha anduh chekib o'tkazmasligimiz lozim. Tortgan qiyinchiliklarga yarasha uning shirin mukofoti ham bo'ladi. Axir „oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'dir”...

Qisqa bo'lishiga qaramay mazmunıy maqsadini yetkazib bera olgan „Isiriq” hikoyasining tahliliga kirishamiz. O'lmas Umarbekov xalqning o'zidan olib, uni sayqallab, yana o'ziga taqdim etishi bilan ajralib turadi. Yozilish uslubi, dialoglar, monolog va obrazlar ismlari aynan shuning uchun xizmat qiladi. Ismi berilmagan bosh qahramon orqali butun insoniyat baxtli, to'kis hayoti davomida undan sarmast bo'lgani holda shukr qilishi kerak degan xulosa anglashiladi. Bir lahzada kulfatlar yomg'iri ostida qolishi ham mumkin...

„Haykal” hikoyasi urushning ayanchli ta'siriga bag'ishlanadi. Haqiqatan insonlar hayotini qutqargan safdoshining xotirasini butun umr yodida saqlaydi. Umr qanchalik qadrlı, jon shunchalik shirin bo'lmasin, uni begona yoki tanish boshqa inson uchun qurbon qilish oliyjanob kishining qo'lidan keladi, xolos. Hikoyada keltirilgan askar haykali nafaqat tog'ni o'ygan holda toshdan yasaliib, tepalikka qadaladi, balki qahramonning qalbiga mehr qo'li bilan mustahkam qilib xotira sifatida o'rnashadi. Yaxshilar xotirasi – abadiy...

Kutilmagan yakunga ega „Garov” hikoyasi qahramoni Sanjar – bir oilaning erka farzandi, oxir-oqibat o'z boshiga o'zi yetgan bebosh. Davr almashgan sayin unga mos global muammolar yangilanib boradi. Jamiyatning asosiy bo'g'ini

hisoblangan yoshlarning bo'sh vaqti nimalarga sarf etilayotgani jamiyatning kelajagini qisman belgilab beradi deyish to'g'ri bo'ladi. Obid akaning jigarporasi ham davrning aldamchi ro'yosi – garovga qurbon bo'ladi. Farzandpushga aylangan asar qahramoni kitobxonga go'yo ko'zgu tutadi. Ogoh bo'lmas ekanmiz, yomon niyatli insonlar oramizdan Sanjarlarni yulib olib ketadi, kelajagini barbod qilib, baxtiqaro qilaveradi.

Xulosa, O'lmas Umarbekov hikoyalari biz uchun sodda o'qiladigan, biroz o'ylashga majbur qiladigan o'lmas merosdir. Biz ularni o'rganib, yakuniy xulosaga kelishimiz qoladi, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O 'l. Umarbekov. Bahor bulutlari.- Toshkent, 2023.